

O'ZBEK MILLIY MADANIYATIDA MULOQOT ODOBI

Shaxnozaxon XALIKOVA*

Annotatsiya: Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning yoshi hamda jinsini inobatga olib jumla tuzish mas'uliyati o'qituvchilarninggina diqqat markazida bo'lmasdan, o'smir yoshdagi o'quvchi va talabalarning ham o'zaro muloqot madaniyatida nutqiy etiketning yuqori darajada rivojlanishi ijobiy muloqotning bardavom bo'lishiga olib keladi. O'quvchilarning nutqiy malakalarini tekshirish mobaynidagi shaxsiy kuzatish va tajribalar natijalari shuni ko'rsatadiki, ularning nutqiy muloqot kompetensiyasining rivojlanganlik darajasi hali talabga javob bermaydi. Tekshirish jarayonida ularning mustaqil hamda ijodiy fikrlashi, o'z nutqini og'zaki va yozma tarzda ravon ifodalashda qiynalishlari, so'z boyligining kamligi, ona tilimizning boy imkoniyatlaridan muloqot jarayonlarida samarali foydalana olmasliklari, matnni qisqartirish, kengaytirish va mazmunini saqlagan holda shaklini o'zgartirishda kamchiliklarga yo'l qo'yishi ayon bo'ldi. Bunda o'quvchilarning lug'at boyligi, gapda so'z va so'z birikmalaridan to'g'ri foydalanish mahorati, gapni uslubiy va grammatik jihatdan to'g'ri tuzish hamda uni aniq, ixcham, mantiqan tushunarli ifoda etish ko'nikmalarini alohida-alohida tahlil qilishga to'g'ri keladi.

Kalit So'zlar: *Vulgarizmlar, Nutq Birliklari, Yosh hususiyati.*

Communication Etiquette in Uzbek National Culture

Abstract: It can be said that in the process of teaching the native language, the responsibility of constructing sentences taking into account the age and gender of students should not only be the focus of teachers, but also the high level of development of speech etiquette in the culture of communication of adolescents and students will lead to the continuation of positive communication. The results of personal observations and experiments during the examination of the students' speech skills show that the level of development of their speech communication competence does not yet meet the requirements. During the examination, it was revealed that they have difficulty in independent and creative thinking, difficulty in expressing their speech fluently both orally and in writing, a small vocabulary, an inability to effectively use the rich possibilities of our native language in communication processes, and shortcomings in shortening, expanding the text and changing its form while preserving its content. In this case, it is necessary to separately analyze the students' vocabulary, their ability to correctly use words and phrases in sentences, their ability to construct sentences stylistically and grammatically correctly, and their ability to express them clearly, concisely, and logically.

Keywords: *Vulgarisms, Speech Units, Age Characteristic.*

Bugungi davr nuqtai nazaridan ham, muloqot odobi, nutq mas'uliyati, so'zlashish madaniyati va bu jarayonlar samaradorligini oshirish kabi masalalar tilshunoslikning ham, pedagogikaning ham asosiy muammosiga aylangan. Natijada til va shaxs mushtarakligi (antropotsentrizm) bilan bog'liq masalalarni tilshunoslik fani o'rgansa, muayyan nutqiy vaziyatda o'quvchi va talabalarning tildan oqilona va samarali foydalanish kompetensiyasi bilan shug'ullanish ona tili ta'limining dolzarb masalalaridan biri bo'lib bormoqda.

Bundan ko'rinib turibdiki, muloqot bugungi davrning dolzarb masalalaridan bo'lib qolmoqda va u bir qancha fanlarning o'rganish obyekti bo'la oladi. Xususan, muloqotning psixologiya, tilshunoslikda o'rganilgan hamda yoritilgan aspektlaridan amalda unumli foydalana olish va bu bo'yicha ma'lum tadqiqotlar olib borish, muayyan tajribalardan kelib chiqib ko'rsatmalar berish pedagogikaning munosib hissasidir.

“Zamonaviy pedagogik texnologiyaning muhim xususiyati bilimlarni o'zlashtirishdangina iborat bo'lmasdan, balki muloqot materiali sifatida axborotlardan foydalanishni ham o'z ichiga oladi. XXI asr tayyorini o'qib-o'rganish emas, izlashga, qidirishga o'rgatish, ziddiyatli fikrlar hosil qilib, undan to'g'risini topish, o'quvchilardan ko'p takliflar olish va uni qo'llab-quvvatlab obrazli fikrlashga o'rgatadigan asr. Buning uchun esa o'qituvchilar ijodkor, izlanuvchan bo'lishlari darkor” (Yusupova, 2007: 22).

O'quvchi shaxsining eng yaqin muloqotchisi sifatida o'qituvchi mahorati va ijodkorligi talab qilinayotgan bir davrda ularning dars jarayonidagi bevosita muloqot jihatlari, usullari, dars tashkil qilishdagi o'ziga xos yondashuv, albatta, o'quvchining nutqiy salohiyati

* PhD. Dots., Andijon Davlat Pedagogika Instituti, O'zbekiston, e-pochta: xoliqovashahnoza86@gmail.com

rivojiga, mustaqil fikrlash qobiliyatiga va mavzuni o'zlashtirish sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi lozim. Ayniqsa, ularning yosh xususiyatiga alohida e'tibor qaratish shart. Aks holda salbiy holatlar yuzaga kelishi mumkin.

Yuqori sinfda o'quvchi ona tilini ilmiy jihatdan o'rgana boshlaydi va shu tariqa savod chiqaradi. Afsuski, ayrim bolalarda ona tilini yaxshi o'zlashtira olmaslik holatlari va ular gapirganda ona tili vositalarida turli nuqson va kamchiliklar uchrab turadi. Bu kabi nutq buzilishlarini o'rganish, bartaraf etishda o'quvchi nutqining rivojlanish bosqichi, me'yori, o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda, ularning nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda ona tili ta'limining ahamiyati katta.

O'smir yoshga borganda ularda nafaqat biologik, fiziologik, balki leksik birliklarda ham turli o'zgarishlarning guvohi bo'lamiz. Ular bu davrda o'zi haqidagi har qanday ma'lumotlarga ehtiyojmand bo'ladi. O'zlarining ichki "Men"i kuchaygan va tashqi qiyofasiga chetdan qaray boshlagan bo'lishadi. O'qituvchi, albatta, o'smir yoshdagi bolaning bu davrga xos xususiyatlarini bilishi va ehtiyotkorona yondashishi kerak bo'ladi.

Odobli, dilkash o'smir kutilmaganda qaysar, intizomsiz, qo'pol, serzarda bo'lib qoladi. Kattalarning yo'l-yo'riqlariga talablariga muloyimlik bilan javob qaytarib yurgan o'smir ularga tanqidiy munosabatda bo'ladi. Uning fikricha, kattalarning talablari, ko'rsatmalari mantiqan ixcham, dalillarga asoslangan, yetarli obyektiv va subyektiv omillarga ega bo'lishlari kerak. O'smirda shaxsiy nuqtai nazarining vujudga kelishi sababli u kattalarning, o'qituvchining qayg'urishi, koyishiga qaramay, o'zining fikrini o'tkazishga harakat qiladi. Uning o'z qadr-qimmatini haqidagi tasavvuri, narsa va hodisalarga munosabati oqilonalikdan uzoqlasha boshlaydi, u ayrim ma'lumotlarni tushuntirib berishni yoqtirmaydigan bo'lib qoladi. Serzardalik kundalik xatti-harakatning ajralmas qismiga aylanadi. O'smir xulqidagi bunday o'zgarishlar tajribasiz o'qituvchi yoki ota-onani qattiq tashvishga soladi, asabiylashtiradi va ularning o'quvchiga munosabatini o'zgartiradi. Natijada kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar kelib chiqadi (G'oziyev, 1982: 135).

Muloqotda yosh xususiyati bilan bir qatorda jins xususiyatini inobatga olib nutq so'zlash ham alohida ahamiyatli. O'qituvchilarning barchaga birdek muomala qilishini keng ma'noda ijobiy deb baholasak (ya'ni o'quvchilarning ijtimoiy kelib chiqishi va kimlarning farzandlari ekanligidan qat'iy nazar bir xil munosabatda bo'lishi), tor ma'noda esa bu – qo'pollikdir. Aksariyat tajribali o'qituvchilar dars paytidagi ayrim to'polonli vaziyatlarda aynan barchaning e'tiborini boshqa jins vakili oldida ularni tergamasligini aytib ham tarbiyalashga muvofiq bo'lishadi. Sababi har xil jins vakillari o'rtasida o'zaro andisha, ornomus, uyat tushunchalari bir xil jins vakillariga qaraganda birmuncha kuchliroq bo'ladi. Sh.Iskandarovaning "O'zbek nutq odatining muloqot shakllari" kitobida xotin-qizlar nutqiga mansub "aylanay", "o'rgulay", "girgitton", "qoqindiq" singari so'zlar ijobiy ma'no nozikligini ifodalovchi leksik vositalar hisoblanishini, ular ko'proq keksa ayollar tomonidan nutqiy odatning turli vaziyatlarda qo'llanishini ta'kidlab o'tgan (Iskandarova, 1993: 19).

Bu haqida ma'lumot berib o'tgan S.Mo'minov esa erkak va ayollar nutqidagi ba'zi farqlar xususida quyidagilarni yozgan:

"O'zbek erkak va ayollari nutqining daromad bosqichi asosan mavzu jihatdan xoslanadi. Ya'ni erkaklarning daromad nutqlari ish yuzasidan, biron-bir jiddiyroq masalaga qaratilsa, aksariyat o'zbek ayollari kundalik turmush ikir-chikirlariga oid masalalarni ham daromad bilan gapirishga odatlanishgan.

Erkaklar daromad nutqlari "Xabaringiz bormi...", "Siz eshitdingizmi-yo'qmi...", "Bilasizmi..." kabi jumlar bilan boshlanib, "Gap shuki...", "Gapning o'g'il bolasini aytayotganda...", "Xullas..." kabi nutq birliklari bilan yakunlansa, ayollarning daromad nutqlari "Nima desam ekan...", "Gapni nimadan boshlasam ekan...", "Sizga nima deb tushuntirsam ekan..." kabi iboralar bilan boshlanib, "voy, esim qursin...", "aytganday...", "ha, aytmoqchi..." kabi jumlar bilan qoliplanadi (Mo'minov, 2000: 29).

Ko‘rinib turibdiki, o‘zbek erkak va ayollari nutqida asosan leksik, frazeologik jihatdan xoslangan bo‘ladi. Ayniqsa, bu xoslanish qarg‘ishlar va so‘kishlarda yanada yaqqolroq aks etadi.

“Qarg‘ish mualliflari asosan ayollardir. Ular qarg‘amay turolmaydilar. Bolalarini, erlarini, do‘stiyu dushmanini, ermak uchun bo‘lsa ham qarg‘aydilar:... “Juvonmarg bo‘lsin”, “og‘zidan qoni kelsin”, “uyi kuysin”, “kalta qaytsin”, “sochi taxtada taralsin”, “izi kuysin”, “oti o‘chsin”, “xudodan topsin”, “o‘g‘il-qizining xuzurini ko‘rmasin”, “go‘r tortsin”, “tuxumi qurisin” (Sattor, 1993: 172).

O‘quvchilar esa, ayniqsa, o‘smir yoshida kattalarga taqlidan yondashishadi. Shuning uchun ularning nutqida ham yuqoridagi singari qarg‘ishlar yoki vulgarizmlar tez-tez uchrab qolishi mumkin. Demak, haqiqiy pedagog o‘quvchi bilan nutqiy faoliyatga kirishishda til imkoniyatlaridan psixolog sifatida samarali foydalanishni bilishi va ularga ham qarg‘ish yoki haqoratli so‘zlarning aslida muloqot jarayonida salbiy holatlarni yuzaga keltirishidan ogohlantirishi kerak. Va o‘qituvchining o‘zi ham ayrim o‘rinlarda qarg‘ishlardan emas, balki erkalash so‘zlaridan me‘yoriy va o‘rinli foydalana bilsa, o‘quvchilarni to‘g‘ri yo‘naltirishi uchun katta ahamiyatga ega bo‘ladi:

Muloqot jarayoni ko‘pchilikni qiziqtirgan mavzu hisoblanadi va u psixologiya, tilshunoslik, qolaversa, pedagogikaning ham asosiy o‘rganish obyektlaridan biri bo‘la oladi. Muloqot bevosita kishilarning jonli nutq ijrosi natijasida yuzaga keladi va o‘z-o‘zidan undagi ishtirokchilar soni ikki yoki undan ortiq bo‘ladi. Muloqot turli adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Muloqot so‘zining kelib chiqishiga nazar tashlasak, aslida arab tilidan olingan bo‘lib, ma-, mu-, ta- elementlarining biri bilan boshlanishi va asosi esa aloqa so‘zini anglatishi bilan belgilanadi. Qo‘shimcha ma’lumot uchun aytish mumkinki, yuqoridagi qo‘shimchalar aslida arabiy masdar qo‘shimchalar, ya’ni o‘zbek tilidagi harakat nomi (infinitiv) -moq qo‘shimchasiga teng. Masalan, kabira arabchadan olingan bo‘lib katta ma’nosini bildiradi. Takabbur bo‘lganda esa o‘zini katta tutmoq, degan ma’noni beradi.

Biroq aloqa mazmuniga xizmat qiladigan yana bir tushuncha borki, bu – kommunikatsiya, bular ayni bir tushuncha emas. Bu haqida M.A.Maxsudova shunday yozadi: “Muloqot tushunchasini kommunikatsiyadan farqlash kerak. Kommunikatsiya tirik va o‘lik tabiatdagi tizimlar o‘rtasida axborot almashinuvini anglatadi. Hayvonlar o‘rtasidagi signallar almashinuvi, insonning texnik vositalar bilan aloqa qilishi – bularning barchasi kommunikatsiya. Muloqot esa faqat insonlar o‘rtasidagina amalga oshirilishi mumkin (Maxsudova, 2006: 118).

Muloqot jarayoni tafakkur, til, nutq va muloqot muhiti kabi unsurlardan tashkil topadi. Sifatli muloqotni amalga oshirish uchun bu unsurlar albatta inobatga olinishi shart. Aslida, ulardan birortasining muloqot tizimida bo‘lmasligi ham mumkin emas.

Ma’lum qoidalar, muomala tamoyillariga amal qilish muloqotning sifati va samarasidan dalolatdir. Muloqot mavzusi azaldan sharq milliy madaniyati vakillari tomonidan badiiy asarlar orqali tarannum etilgan va bu boradagi qimmatli ko‘rsatmalar e’tirof etilgan.

Jumladan, Ahmad Yugnakiydan shunday hikmatlar bizga merosdir:

“O‘ylab so‘zlagan kishining so‘zi to‘g‘ridir, o‘rinsiz ko‘p vaysagan til (tinglamas) ayamaydigan yovdir”. “Kishi boshiga tushgan har qanday ish uning tili tufayli sodir bo‘ladi, bu til sababli ayrimlar yaxshilik, ba’zilar hurmat ko‘radi” (Xolmatova, 2011: 7).

O‘zbek xalq maqollari turkumida esa shu mazmundagi maqolga quyidagi sharh keltirilgan: **Gap bilmagan og‘izdan gapirolmas gung yaxshi.**

Var.: “Gap bilmagan maraka buzar”; “Gapi gapga o‘xshamas, og‘zi gapdan bo‘shamas”; “Gapi to‘mtiqning – o‘zi to‘mtiq”; “Gapi sassiqning – o‘zi sassiq”; “Irgan og‘izdan chirigan gap chiqar”; “So‘z bilganga – ming tanga, so‘z bilmaganga – xayf sanga”; “Gapni gapirsa, gapdon gapirsin!” Gap bilmagan odam dilidagi maqsadini birovga aniq tushuntirilmaydi, natijada birov bilan bitadigan ishini ham bitirilmaydi. Bundan tashqari, gap

bilmagan, yaxshi-yomon gapning farqiga bormaydigan, og'zi koski odam ko'pchilik o'rtasida so'zlagudek bo'lsa, hammani ensasini qotiradi, yoliqtiradi, g'azabini keltiradi, kayfiyatini buzadi. Shu boisdan: "Gapni gapir joyi bilan, Nonni yegin moyi bilan" deb nasihat qiladilar (Shomaqsudov va boshqalar, 1990: 526).

Muloqot jarayonida muloqot vositalaridan biri bo'lmish so'z qo'llashda nihoyatda ehtiyotkorona yondashish kerak. O'z nutqini taftish qilolmagan inson hech qachon o'z nutqiga salbiy baho bermaydi. Go'yo kishi o'z bolasining nuqsonlarini ko'rishga ojizlik qilgani kabi. Bu xususda Alisher Navoiy shunday deydi:

*So'zungni yaxshi ko'rar sen o'zung,
Ko'rinmas yomon chun erur o'z so'zung.
Ki so'z zodai tab'i farzand erur,
Ki farzand erur, jong'a payvand erur* (Navoiy, 1963).
*Sa'diyda esa muloqotga boshqacha bir yondashishning guvohi bo'lamiz:
Oqillar nazdida gar o'ltirish odobdir,
Maslahat tashlaganda so'zga ko'rsatgil himmat.
Ikki narsa aqlga sig'maydi agar bilsang,
So'zlash payti sukutu keraksiz joyda suhbat* (Voronsov, 1989: 358).

Sharq milliy madaniyatida muloqot odobi to'g'risida fikr yuritir ekanmiz, sukut haqida ham alohida to'xtalib o'tish joiz. Sababu ham ayni muloqot jarayonida amalga oshadigan holat. Aytish mumkinki, dialogik holatda uning vaziyatdagi yuki, ahamiyati ortadi. Kishi yolg'iz holda o'tirganidagi jimlikni sukut deb bo'lmaydi. Sukut aslida arab tilidan kirib kelgan so'z bo'lib, uni sukunat, sokinlik so'zlari bilan bog'lash mumkin (Xalikova, 2023: 25-34).

Sukut (yoki *jim qolish*) deb, "so'z yoki so'zlar guruhining gap oxirida tushirib qoldirilishi"ga aytiladi. Adabiyotlarda sukut ellipsisning bir ko'rinishi sifatida talqin qilinadi. Bu usuldan badiiy matnda quyidagi maqsadlarda foydalanilganligini kuzatishimiz mumkin. Odatda, qahramonning sukuti (jim qolishi) ko'p nuqta bilan belgilanadi. Lekin, shuni unutmaslik kerakki, ko'p nuqta bilan tugallangan hamma gaplar ham sukutga misol bo'lavermaydi. Ba'zan muallifning o'zi qahramonning jim qolishi va uning sababini bayon qiladi. Bunday vaziyatda ekspressiv effekt sezilarsiz darajaga tushadi (Qurbonova va boshqalar, 2014: 78).

*Yomon suhbatdoshdan yolg'izlik yaxshi.
Yolg'izlikdan solih suhbatdosh yaxshi.
Jim o'tirmoqdan yaxshi so'z aytmoq yaxshi.
Yomon so'z gapirmoqdan jim o'tirmoq yaxshi* (Sodiqova, 2010: 56).

Sukut bu shunchaki nutq vaziyatida jim turish, ya'ni yozma holatda dialogik nutqda ko'p nuqtadir. Biroq mana shu birgina sukutning nutq vaziyatida noverbal vosita ishora qilgan ma'nodan farqli o'laroq bir qancha keng ma'nolarni ifodalashi mumkin.

Aloqa-aralashuvda hatto sukut (jim turish, gapirmaslik) ham nolisoniy vosita sifatida ishtirok etadi va o'ziga xos muomalaviy mazmun ifodalaydi. Albatta, sukut so'z yoki gapdan farqli o'laroq muloqot jarayonidan tashqari hollarda, ya'ni uyqu va shunga o'xshash holatlarda mazmun ifoda etmasligi mumkin.

Sukutning badiiy adabiyotda ahamiyati judda katta, bundan yozuvchilarimiz o'zlarining ijod namunalarida samarali foydalanadilar. Misol tariqasida ko'pchilikka ma'lum bo'lgan Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarida ham juda ko'p o'rinlarda sukutdan unumli foydalanganining guvohi bo'lamiz. Ayniqsa, birinchi bo'limning "Marg'ilon havosi yoqmadi" ruknida Hasanali va Otabekning suhbatida bu tarzda keladi:

Otabek o'ziga qattiq tikilib turg'an Hasanalidan yuzini chetka burishka majbur bo'ldi. Go'yo bu sehrgar chol hamma sirrini betdan o'qub olar edi. Hasanalini hamon o'ziga tikilib turg'anini bilib, manglayini qashig'an bo'ldi:

– Xo‘sh, davom etingiz...

– Bu sirringizni mendan yashirmoqchi bo‘lasiz, – dedi tamom qanoat bilan Hasanali, chunki endi o‘z kashfiga juda ishong‘an edi. – Xayr, yashirmoqqa ham balki haqqingiz bordir... ammo shu ko‘yi sir saqlash bilan birar natijaga yetish mumkinmi?

– ...

Otabek qip-qizil qizarib gunohkorlardek yerga qarag‘an edi. Hasanalining yuziga padorona tarahhum tusi kirib, keksalarga maxsus ohangdor bir tovush bilan bekning ustidagi og‘ir yukni ola boshladi... (Qodiriy 2017: 50).

Yuqorida keltirganimizdek, sukut – alomati rizo. Biroq hamisha ham rizo alomati sifatida qarash katta xato bo‘ladi. Aslida, bu naql o‘zbek mentalitetiga xos bo‘lgan ayrim udumlarimiz orqali paydo bo‘lganligini aytish mumkin. Masalan, qiz bola bor uyga sovchilar kelishadi va qizning qo‘lini so‘rashadi. Onasi qizining qo‘yniga qo‘l solgan holda vaziyatni yetkazib javobiga og‘iz poylaydi. Shu o‘rinda agar qizga ma‘qul bo‘lsa, qiz hech bir e‘tirozsiz uyalib yerga qarab sukut qiladi. Bu esa uning hech qanday qarshiligi yo‘qligini bildiradi.

Sukut turli vaziyatlarda turlicha vazifa bajaradi. Misol uchun yosh bolaning o‘anasiga qarata xarxasha qilishini olsak. Shuncha yo‘q deyishiga qaramay, o‘rtoqlari bilan toqqa borishni xadeb so‘ragan o‘g‘liga onasining biror javob o‘rniga sukutni ravo ko‘rishini “alomati rizo” deb bo‘lmaydi, albatta.

Yoki endi butunlay boshqa vaziyat qizga sovchi yuborgan yigitni, bo‘lajak kuyovning odob-axloqi, yurish-turishi, nasl-nasabi haqida bilmoqchi bo‘lgan qizning uyidagilari kuyov bo‘lmishning yon qo‘shnilaridan surishtirmoqchi. Qo‘shnilarning javobi esa sukut...

Endi bevosita mavzuyimiz muhokamasidagi notiqlik san‘atiga qaytadigan bo‘lsak, ko‘pincha omma oldida nutq so‘zlayotgan inson ham tez-tez muloqot paytida biroz sukut qiladi. Buni aytilgan fikrlarni tinglovchilar “hazm qilib” olishlariga berilgan fursat deb tushunish mumkin.

Pedagoglar ham dars paytida sukutdan unumli foydalanadilar. Va birgina shu sukutning o‘ziyoq o‘quvchilarning to‘poloni tugashiga, vaziyatni qo‘lga olishiga xizmat qiladi. Yoki ayrim o‘rinlarda nutq ta‘sirini oshirish uchun aynan qaysidir paytda sukut qilinishi kerak bo‘ladi.

Sukut nafaqat notiqlar, pedagoglar, ma‘ruzachilar, balki boshqa soha kishilarida ham kasbiy muloqot taqozosiga ko‘ra uchraydi. Masalan, shifokorlarni olaylik: Operatsiya muvaffaqiyatsiz holda yakunlanganda, bemorning yaqinlariga bu holni birdan aytish mumkin bo‘lmagan holda sukut orqali vaziyatni tushuntirib qo‘yishadi (Televideniyedagi kinolarda, kliplarda bu holning tasvirlarini juda ko‘p ko‘rish mumkin). Lekin bir kasb egalari borki, ularning sukut saqlashi mumkin emas. Bu haqida Xurshid Davron shunday deydi: “Eng dahshatli sukunat – shoir jim yursa” (Davron, 1981).

Notiqlikka qadam qo‘yayotgan o‘quvchi albatta bu tushunchalarni to‘g‘ri anglashi va muloqot paytida o‘zi ham sukutdan o‘rinli foydalanishi kerak bo‘ladi. Biroq o‘rinli yoki o‘rinsiz sukutni ham farqlash lozim. Ba‘zan o‘quvchilar ustozlar tomonidan berilgan savollarga sukut bilan “javob beradi”. Bu esa o‘quvchilarning mana shu mavzu borasida bilimsizligini namoyon etadi.

O‘rinsiz sukut boladagi eng katta kamchilik, hattoki nuqsonga aylanmasligi lozim. Qachon bu hol yuz beradi? Bola yoshligida nosog‘lom muhit ta‘sirida bo‘lsa yoki aytgan har bir gapiga tanbeh eshitgan bo‘lsa yoki qilgan har bir ishiga tazyiqlar ostida qolgan bo‘lsa, umuman, tarbiyada bolaga to‘g‘ri yondashilgan bo‘lmasa, bola o‘rinsiz sukutni o‘ziga ravo ko‘radi.

Shu o‘rinda bir rivoyatni misol qilish o‘rinli:

Bir xonadonda bir bola tug‘ilibdi. U kichik yoshligidayoq hamma balo kishining tilidan keladi, degan gapni kimdandir eshitib, qo‘rqqanidan hech gapirmaslikni odat qilibdi.

Ota-onasi bu to'g'rida qayg'urib ko'rsatmagan tabibi qolmabdi. Shu tarzda bola ulg'ayib voyaga yetibdi va kunlardan bir kun otasi katta bo'lib borayotgan farzandiga ov mashqlarini o'rgatish uchun o'rmonda qush izlay boshlashibdi. Shu payt nogahon bir qush sayrab yuboribdi va shu qushni otib tushiribdilar. Bu holni ko'rgan bola otasiga qarab:

– Mana men nima uchun gapirmayman, ota. Agar shu qush og'zini ochmaganda hali uzoq yashardi, – debdi.

Otasi esa ajablanib o'g'liga qarab:

– Iye, sen hali soqovmasmisan?! Nega shu paytgacha gapirmading?! – deb yuziga tarsaki tortib yuboribdi.

Ba'zan yuqoridagi kabi me'yoridan ortiq sukut saqlashni odat qilgan o'quvchilarga nisbatan ularning bu holati noto'g'ri ekanini tushuntirish kerak. Ya'ni: “Xoy inson, agar sen jim turaversang, ovozingni eshitmaganlar sening bor yoki yo'qligingni bilmasalar, oxiri seni esdan chiqarishadi. Oqibat dunyo seni unutadi. Shuning uchun jo'shib yasha”.

Diniy, ba'zi dunyoviy manbalarda sukut “yaxshi so'z”ga, “aqllilik belgisi”ga tenglashtiriladi. Masalan, Qur'oni Karimda shunday oyat bor: “...iymon keltirgan kishi yaxshi so'zlarni so'zlasin yoki sukut saqlasin” yoki “Kim sukut saqlasa, najot topadi”, “Hammani yiqitadigan pahlavon kuchli emas, balki, g'azab kelganda o'zini qo'lga oladigan (sukut saqlaydigan) kishi kuchlidir” kabi hadislar ham mavjud (Xoliqulova, 2015: 140).

Shuning uchun ham ona tili darslarida maktab o'quvchilari nutqida tez-tez uchrab turadigan bu kabi muammolarni bartaraf etishga alohida yondashish kerak. Va matn ustida ishlash jarayonida, savol-javoblarda bu masalaga jiddiy e'tibor qaratilishi lozim. Sukutni, albatta, muloqot jarayonidagi verbal holatga kiritib bo'lmaydi. Biroq faqat noverbal vositalar guruhiga tegishli ham deya olmaymiz. Chunki noverbal vositalar mimika, xatti-harakat, ohang, ko'z qarash, imo-ishoralar bo'lib, bu ma'lum ma'noda so'zlovchining hissiy holatidan darak beradi. Jumladan, bu noverbal vositalar orqali quvonch, shodlik, alam, nafrat, baxt, qayg'u... kabilarni anglash mumkin. Bu to'g'rida f.f.d. M.Saidxonov shunday yozadi: “Noverbal vositalarning aloqa-aralashuv vositasi sifatida ishlatilishi, ularning insoniyat tomonidan qo'llanilishining sabablari haqidagi turli qarashlar mavjud. Aloqa-aralashuvda ishtirok etuvchi mimika va boshqa nutqni to'ldirib keluvchi vositalar tabiiy-biologik hodisa degan qarashni bildiruvchilar: “Noverbal vositalar kishilar o'rtasidagi aloqa-aralashuvning qadimiy shakli”, – deb aytib o'tadilar” (Saidxonov, 2008: 17).

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, shuni aytish kerakki, umumta'lim maktabi o'quvchilarining muloqot jarayonidagi noverbal vositalari ham o'ziga monand bo'lishi kerakligi ona tili darslari orqali singdirilishi lozim. Ya'ni ona tili fani o'qituvchisi tomonidan o'g'il bolalarning ham, qiz bolalarning ham o'z jinsiga mos holdagi noverbal vositalardan qay darajada foydalanayotgani jiddiy nazoratga olinishi kerak.

Masalan, yuqori sinf qizlarining o'zlarini erkakshoda tutishlari va quyidagi ayol kommunikantlari uchun xos bo'lmagan noverbal vositalarni qo'llashi katta xato:	Ba'zan esa ayrim sabablarga ko'ra (balki oilada bir necha qiz farzandlardan keyin tug'ilgan yoki suhbatdoshlari aksariyat qiz bolalardan iborat bo'lgan) yuqori sinf o'g'il bolalarining erkak kommunikantlari uchun xos bo'lmagan quyidagi odatlarga ko'nikib qolishi katta xato:
● qo'lini paxsa qilib gapirish ● baland ovozda “xo-xo”lab kulish; ● bosh barmoqni orqaga qayirib “men” ma'nosida ko'kragiga ishora qilish; ● muhabbat izhori ma'nosida “do'st” deb ko'krakka urish	● qosh uchirib, chimirib gapirish; ● sababsiz og'izni to'sib gapirishlik; ● noz qilishni ifodalovchi ko'z suzish; ● hayronlik, bexabarlik, mensimaslik ma'nosida lab burish; ● achinish ma'nosida tilni tishlab, boshni qimirlatish; ● o'pishib (ayniqsa, o'z jinsiga mansub

	kishilar bilan) ko'rishish; • ko'rsatkich barmoqni iyakka qo'yib, o'y surish; • jimjiloqni labga tekkizib uyalib yerga qarab turish; • suhbatlashib turganda o'ng yoki chap tomonga bir siltanib qayrilib va boshni hiyol pastga egib suhbatdoshdan arazlash; • kommunikant bilan o'ta yaqin (50-60 santimetrlardan qisqa) masofada turib so'zlashish.
--	--

1-rasm. Jinsga xos noverbal vositalarning noto'g'ri ifodalanishi

Bu kabi jinsga xos noverbal vositalardan to'g'ri foydalanmaslik nafaqat maktab muhitida, balki turli jamoat joylarda muloqotga kirishuvchi o'quvchi shaxsining izza bo'lishiga, o'z jinsiga mansub vakillar bilan asta-sekin uzoqlashishiga olib kelishi haqida ayrim mavzular orqali tushunchalar berib o'tilishi kerak. Muloqot jarayonida beriladigan savollar ikkinchi suhbatdoshni qiziqtirishi, shuningdek, fikrlarni teranlashtiruvchi faktlar keltirishi zarur bo'ladi. Shundagina muloqot madaniylashadi, notiqlik mahorati to'g'ri amalga oshadi.

Suhbatdosh fikr almashish jarayoniga, aytilayotgan gaplarga befarq bo'lsa, nutqi ham mantiqiy bog'lanishda bo'lmasa, u bilan suhbatni davom ettirishning iloji yo'q. Shunga ko'ra, suhbatdosh kutilganidek yangi ma'lumotga ham ega bo'la olmaydi. Fikr almashishda so'zlovchi o'z tinglovchisiga e'tiborli bo'lishi, uning diqqatini tortishi, jalb eta olishi minnatdorchilik bildirishi kabilarda namoyon bo'ladi. Xullas, muloqot va kommunikatsiya bir-biridan farq qiladi, ayrim jihatlari bilan o'xshaydi. Chunki muloqot kommunikativ jarayonga nisbatan boy hamda ifodali.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ona tili darsining, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fan ekanligiga urg'u beradigan bo'lsak, aslida aniq fanlardan birinchi navbatda inson shaxsining komillikka erishishi uchun, uning psixologik omillariga munosib ravishda to'g'ri yondashishi uchun xizmat qilishi bilan farqlanadi, deyish mumkin. Bu esa kishilar kimlar bilan va qanday muomalada bo'lishiga bog'liq holda shakllanishga, bu jarayonlarda esa albatta har bir muloqot ishtirokchisi psixologik bilim bazasiga tayanib ish ko'rish lozimligiga olib keladi.

Muloqot jarayonida yuzaga keladigan salbiy holatlarni bartaraf etish uchun o'quvchilarda nutqiy kompetentlikni oshirish, davrada yoshiga munosib holda o'zini tutish, gapirish ko'nikmasini shakllantirish lozim. Bu borada darslarda "Debat" o'yinlarini tashkil etish va uni mavzuga bog'lab o'tkazish ham yaxshi samara beradi. O'yin qoidasiga ko'ra, ma'noli argumentlarni keltirish, spikerlarga o'zaro hurmat bilan yondashish jarayonida ishtirokchilarda muloqot madaniyati ortadi. Bundan tashqari, ular aytmoqchi bo'lgan axborotni mavzuga qay darajada aloqador ekanini tahlil qilishni va uni qay tarzda yetkazish muhimligiga ahamiyatli bo'lishni o'rganishadi. Bunda asosan, o'qituvchi tomonidan munazarali mavzuning tanlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda har bir ishtirokchi o'z qarashlaridan kelib chiqib mustaqil fikrlarini erkin va ta'sirli so'zlashga harakat qiladilar. Bu esa dars jarayonining yanada qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, psixolingvistik bilimlarga asoslanib, o'qitish jarayoni ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilmas ekan, o'quvchilarning tilni tushunishi, milliy psixologiyani tushunishlari oson kechmaydi. Buning uchun o'qituvchi o'z ustida tinimsiz ishlashi, o'zbek xalqining turmush tarzi, urf-odatlar, an'analari va madaniyatini o'rgatish muloqot qilishda ahamiyatli ekanligi, bu bo'yicha o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashi zarur. Demak, fan o'qituvchilarining o'zlari muloqot qilish va uni ta'lim jarayonida qanday tashkil etish bo'yicha yetarlicha tasavvurga ega bo'lishi, rivojlangan

mamlakatlar ta'limidagi ilg'or usullarni qo'llash yuzasidan zarur malakalarga ega bo'lishi bugungi kunda dolzarbdir.

ADABIYOTLAR

- Davron, X. (1981), *“Tungi bog‘lar” kitobi, (Eng kuchli baqiriq she‘ridan)*, Toshkent: Yosh gvardiya.
- G‘oziyev, E. (1982), *Yosh davrlar psixologiyasi*, Toshkent.
- Iskandarova, Sh. (1993), O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari. – B.19
- Maxsudova, M. (2006), *Muloqot psixologiyasi (O‘quv qo‘llanma)*, Toshkent: Turon-Iqbol.
- Mo‘minov, S. M. (2000), *O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari*, Avtoreferat, Toshkent.
- Navoiy, Alisher (1963), *Asarlar*, 15-jild, 1-jild, Toshkent.
- Qodiriy, Abdulla (2017), *O‘tkan kunlar* (roman), Toshkent: Info Capital Group.
- Qurbonova, M., Yo‘ldoshev M. (2014), *Matn tilshunosligi*, Toshkent: Universitet.
- Saidxonov, M. (2008), *Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar*, Toshkent: Fan nashriyoti.
- Sattor, Mahmud (1993), *O‘zbek udumlari*, Toshkent: Cho‘lpon.
- Shomaqsudov, Sh., Shorahmedov, Sh. (1990), *Hikmatnoma*, Toshkent: Matbuot.
- Sodiqova, T. (2010), *Dildagi dur: Sakson hadis talqini*, Toshkent: G‘afur G‘ulom.
- Voronsov, V. (1989), *Tafakkur gulshani. Vatandosh hamda xorijiy allomalarning aforizmlari va hikmatli so‘zlari*, Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti.
- Xalikova, Sh.A. (2023), *Umumta’lim maktablarining 8-9-sinflarida o‘quvchilarning nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi*, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, Andijon.
- Xoliqulova, G. (2015), *Sahna asarlaridagi qahramon xarakterini talqin qilishda zamonaviy kommunikativ texnologiyalardan foydalanish uslubiyati*, Toshkent.
- Xolmatova, Nargiza (haz.) (2011), *Ahmad Yugnakiydan 200 hikmat*, Toshkent: Muharrir nashriyoti.
- Yusupova, Sh. (2007), *Ona tili o‘qitish mazmuni* (Ona tili va adabiyot o‘qituvchilari uchun “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligidan uslubiy qo‘llanma), Toshkent: “Yangi asr avlodi”.